

## TARBIYACHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI FAOLIYATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna*

*Andijon Davlat Pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

*Erkin tadqiqotchi*

[yaqubovamuhabbat90@gmail.com](mailto:yaqubovamuhabbat90@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida tarbiyachi-pedagoglarning kreativ salohiyatini va kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish, kasbiy kompetentligi rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ilg'or ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya mashg'ulotlarini samarali pedagogik texnologiyalar, yondashuvlar asosida boyitish bilan birga, soha mutaxassislarini yuqori kompetensiyaga ega bo'lish zaruriyati yoritib berilgan.

**Аннотация:** Данная статья предназначена для воспитателей дошкольных образовательных организаций и направлена на повышение креативного потенциала и эффективности профессионально-педагогической деятельности воспитателей-педагогов, развитие профессиональной компетентности как одного из важнейших факторов реформирования системы образования. Наряду с обогащением учебно-воспитательной деятельности передовых образовательных учреждений эффективными педагогическими технологиями, подходами, освещается необходимость повышения компетентности специалистов отрасли.

**Annotation:** This article is intended for educators of the preschool educational organization, and as one of the important factors for reforming the educational system, special attention is paid to improving the creative potential and effectiveness of professional and pedagogical activities of educators and professional competence. In addition to enriching educational and educational activities of advanced educational institutions with effective pedagogical technologies, approaches, the need for high competence of specialists in the field is highlighted.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachilar kasbiy kompetentligi, kreativlik, pedagogik salohiyat, kasbiy pedagogik faoliyat, kompetenylilik, faoliyat samaradorligi pedagogik texnologiyalar.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность воспитателей, креативность, педагогический потенциал, профессиональная педагогическая деятельность, компетентность, эффективность педагогических технологий.

**Keywords:** professional competence of Educators, creativity, pedagogical potential, professional pedagogical activity, competence, efficiency of activity pedagogical technologies.

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Maktabgacha ta’lim vazirining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan 155-son “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘ida belgilab berilgan maktabgacha ta’lim tizimini fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralishi maktabgacha soha yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining pedagogik mahorati va kasbiy qobiliyatlariga nisbatan talablarning ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Respublikada keyingi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan alohida e‘tibor va mazkur yo‘nalishda qabul qilingan bir qator hujjatlar ta’lim sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda pedagogik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tarbiyachilari kasbiy kompetentligini oshirish mazmunini takomillashtirish pedagoglar oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar, ta’lim-tarbiya sohasidagi o‘zgarishlarni uzluksiz ta’lim tizimining eng quyi bo‘g‘ini maktabgacha ta’lim tizimidan boshlash, har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlash, sog‘lom genofondni, yetuk kadrlarni tarbiyalashda g‘oyat muhim vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish uchun olib borilayotgan harakatlarning asl maqsadlaridan biri, intellektual salohiyatga ega, mustaqil fikrlaydigan, mustaqil ravishda kerakli axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqot qila oladigan, olgan bilimlarini shaxsiy va kasbiy ehtiyojlarida qo‘llay oladigan yoshlarni tarbiyalash masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. Bunday hislatlarni rivojlantirish uchun esa shaxsni maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab tayyorlab borish, ya’ni mantiqiy

fiklash mashqlari, xorijiy tillardan dastlabki saboqlarni o'rgatish, shu bilan birga, ularda kreativ tasavvurlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirib borish lozim.

Bu vazifalarni hal etish uchun esa bo'lajak tarbiyachilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega qilish bilan birgalikda ularni hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan holda tayyorlash kerak. Buning uchun esa o'qitish jarayonini kompetentli yondashuvga asoslangan xolda tashkil etish kerak. Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim - o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni ular o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ta'limdir.

## II. ASOSIY QISM

Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim tarbiyachilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, o'z fikr doirasi bilan o'zgalarni jalb qila olish, kommunikativ kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda bajarayotgan ishlarini to'g'ri tahlil qila olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish<sup>1</sup>.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi<sup>2</sup>.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;

<sup>1</sup>N.Muslimov, M.Usmonboeva va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: 2015. – 120 b..

<sup>2</sup>N.Muslimov, M.Usmonboeva va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: 2015. – 120 b.

- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) informatsion kompetentlik - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik - pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish;

g) shaxsiy kompetentlik-izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

h) texnologik kompetentlik -kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

i) ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik<sup>3</sup>.

Tarbiyachi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi.

O'zini o'zi tahlil qilish – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishi.

O'zini o'zi baholash – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi.

### XULOSA

Jahon ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, pedagogik texnologiya va ta'lim strategiyalarini o'zaro integratsiyalash, ta'lim shakllarini optimizatsiyalash vazifalarini belgilaydigan texnik va inson resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning "butun" jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi YUNESKO tomonidan alohida e'tirof etildi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish uchun olib borilayotgan harakatlarning asl maqsadlaridan biri, intellektual salohiyatga ega, mustaqil fikrlaydigan, mustaqil ravishda kerakli axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqot qila oladigan, olgan bilimlarini shaxsiy va kasbiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan yoshlarni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Bunday hislatlarni rivojlantirish uchun esa shaxsni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab tayyorlab borish, ya'ni mantiqiy fikrlash mashqlari, xorijiy tillardan dastlabki saboqlarni o'rgatish, shu bilan birga, ularda pedagogik tasavvurlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirib borish lozim.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni,

<sup>3</sup> N.Muslimov, M.Usmonboeva va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: 2015. – 120 b.

muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. 4zO'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. –T.: 2022. – B. 102.
4. Abduquddusov O.A., Rashidov H.F. Kasb-hunar pedagogikasi. Toshkent: O'MKHTTKMO va O'QT, 2009. - 238 b.
5. Muslimov N., Usmonboeva M.va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: 2015. – 120 b.
6. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari // Diss.....ped.fan.dok., - Toshkent, 2007 -231 b.
7. Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo'lg'usi o'qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Dis. ... ped. fan. nom. - T.:2009.- 170 b.